e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/6cx2cy15

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY SAFARLARI VA TURKISTONDA MA’RIFIY ISLOHOTLAR

Murodov Halim Salimovich
Osiyo xalqaro universiteti, professor, (DSc).
e-mail: murodovhalim645@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-5564-8531

Annotatsiya.
Maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining rivojlanishi hamda sayohat (turizm) orqali ma’rifiy va pedagogik islohotlarning shakllanishi o‘rganiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid ziyolilarining xorijiy mamlakatlarga uyushtirgan ma’rifiy safarlari, ushbu safarlarning ularning dunyoqarashiga, ta’lim tizimi, matbuot va jamiyat rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, turizmning tarixiy, madaniy va pedagogik ahamiyati, jadidchilik harakatidagi innovatsion g‘oyalar hamda xalqni ma’rifiy jihatdan uyg‘otishda safarlarning tutgan o‘rni yoritiladi. Sayohat va turizm orqali orttirilgan tajribalar Turkistonda yangi maktablar ochish, matbuotni rivojlantirish va milliy taraqqiyotga erishishda muhim vosita bo‘lgani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston jadidchiligi, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ma’rifiy sayohatlar, turizm va maorif, yangi usul maktablari (usuli jadid), matbuot va jurnalistika, milliy uyg‘onish, Boqchasaroy.

ПУТЕШЕСТВИЯ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ РЕФОРМЫ В ТУРКЕСТАНЕ

Муродов Халим Салимович
Азиатский международный университет, профессор, (DSc).

Аннотация.
В статье рассматриваются развитие джадидского движения в Туркестане в конце XIX — начале XX века, а также формирование просветительских и педагогических реформ посредством путешествий (туризма). Анализируются просветительские поездки Махмудходжи Бехбуди и других представителей джадидской интеллигенции в зарубежные страны, влияние этих путешествий на их мировоззрение, систему образования, развитие печати и общества. Кроме того, освещаются историческое, культурное и педагогическое значение туризма, инновационные идеи джадидского движения, а также роль путешествий в просветительском пробуждении народа. Подчёркивается, что опыт, приобретённый в ходе путешествий, стал важным средством открытия новометодных школ, развития печати и достижения национального прогресса в Туркестане.

Ключевые слова: туркестанский джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, просветительские путешествия, туризм и просвещение, новометодные школы (усули джадид), печать и журналистика, национальное пробуждение, Бахчисарай.

MAHMUDKHOJA BEHBUDI’S TRAVELS AND EDUCATIONAL REFORMS IN TURKESTAN

Murodov Halim Salimovich
Asia International University, Professor, (DSc).

Abstract.
The article examines the development of the Jadid movement in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, as well as the emergence of educational and pedagogical reforms through travel (tourism). It analyzes the educational journeys undertaken by Mahmudkhoja Behbudi and other Jadid intellectuals to foreign countries, focusing on the influence of these travels on their worldview, the education system, the press, and societal development. Furthermore, the article explores the historical, cultural, and pedagogical significance of tourism, innovative ideas within the Jadid movement, and the role of travel in promoting intellectual and educational awakening among the population. It emphasizes that the experiences gained through travel and tourism served as an important means of establishing new-method schools, developing the press, and advancing national progress in Turkestan.

Keywords: Turkestan Jadidism, Mahmudkhoja Behbudi, educational journeys, tourism and education, new-method schools (Usul-i Jadid), press and journalism, national awakening, Bakhchysarai.

Kirish. Turizm insoniyat paydo bo‘lgan davrdan buyon u bilan hamqadam rivojlanib, kishilarning dunyoqarashi va

ISSN 3060-5059 (Online)

tasavvurlarini o‘zgartirish hamda kengaytirishga xizmat qilib kelayotgan sohadir. Qadim zamonlardan buyon turizm dunyo xalqlari va elatlari o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutib kelmoqda. Zero, ilk sayyohlar yangi o‘lkalarni kashf etish, dunyoni ko‘rish va bilish, savdo-sotiq qilish, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatish maqsadida safarga chiqqanlar. Sharq va G‘arb karvon yo‘llari kesishgan, turli madaniyat va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani bois Markaziy Osiyo bu jarayonda alohida o‘rin egallagan. Sayohat va turizm sohasining rivojlanishida Sharqning, jumladan, O‘zbekiston joylashgan Markaziy Osiyoning hissasi katta. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida ilk odamlar manzilgohlari qaror topgan hamda dastlabki diniy ta’limotlardan biri — zardushtiylik tarqalgan davrlardayoq ajdodlarimiz ilk sayohatlarni amalga oshirganlar. “Avesto”da keltirilgan “Har kim o‘zi yashayotgan joyni dunyoning eng go‘zal joyi deb bilmog‘i kerak” degan o‘git orqali insonlar Vatanni bilish, ko‘rish va undan zavq olish uchun sayohatga chiqishga da’vat etilgan [1]. XIII–XVI asrlarda markazlashgan davlatchilik va rivojlangan madaniy hayot tufayli erishilgan taraqqiyot yutuqlariga qaramay, keyingi asrlarda yuz bergan siyosiy tarqoqlik va o‘zaro birlikning zaiflashuvi hududning jahonning ilg‘or qismidan ajralib qolishiga olib keldi. XVI–XIX asrlarda Turkistondagi ta’lim-tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan madrasa va maktablar IX–XV asrlardagi kabi diniy va dunyoviy ilmlar maskani bo‘lmay, asosan, diniy ta’limga asoslangan biqiq va cheklangan dargoh vazifasini bajara boshladi. Shayboniylar davridan boshlab madrasalarda diniy va dunyoviy ta’lim berish borasida turli qarashlar yuzaga kelib, asosan, diniy ta’limga e’tibor qaratilishi Turkiston o‘lkasining keyingi davrlarda qoloqlik va qaramlik holatiga tushib qolishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Natijada XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi. Mustamlakachilik siyosatining mohiyatini Turkiston general-gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning kundaliklarida keltirilgan “Biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik”, degan e’tirofi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shunga qaramay, Turkiston o‘lkasining turli hududlarida — Buxoro, Farg‘ona, Xiva, Samarqand va Toshkentda maktab va madrasa ta’limini zamon talablari darajasiga ko‘tarish yo‘lidagi harakatlar hech qachon to‘xtamagan, bu jarayon, ayniqsa, XIX asrda yanada faollashgan. Chunki taraqqiyot uchun kurashganlar zamonaviy ta’lim va milliy tarbiyani avlodlar qalbiga singdirmasdan turib, qoloqlik girdobidan xalos bo‘lib bo‘lmasligini juda yaxshi anglagan edilar. Shunday ekan, Abdulla Avloniy yozganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”.

ASOSIY QISM

Bu borada turkiy olamning atoqli farzandi, jadidchilik harakati yetakchisi Ismoil Gasprinskiyning o‘rni alohida bo‘lib, uning Turkistonga qilgan ma’rifiy safarlari natijasida o‘lkada bu harakat yanada jonlanib, keng quloch yoydi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanishida ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham mavjud bo‘lib, ulardan eng e’tiborlisi Ismoil Gaspirali (Gasprinskiy) ta’limoti edi. Ismoil Gasprinskiy 1851-yilda Qrimning Boqchasaroy shahri yaqinida tavallud topgan. Moskvada tahsil olgan, keyinchalik Fransiya va Turkiyada yashagan. 1875–1881-yillarda Boqchasaroyda o‘qituvchilik qilgan, shahar boshqaruvida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1881-yilda “Tavrida” gazetasida e’lon qilgan maqolasida u o‘zining amaliy dasturini quyidagicha ifodalagan:

a) milliy maorif tizimini isloh etish;
b) milliy maorif tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun “Jamiyati xayriya”lar tashkil etish;
d) turkiy xalqlarning umumiy milliy matbuotini yaratish;
e) musulmon xotin-qizlarni ozod etish;
f) milliy mutaxassis va ziyolilarni yetishtirish uchun sharoit yaratish.

Bu davrning ilg‘or kuchlari, ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini his qilib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Turkistonda o‘lka ma’naviy-ma’rifiy hayoti taraqqiyotiga, milliy madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan jadid ziyolilarining butun bir avlodi yetishib chiqdi. Ular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar zotlar bo‘lib, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Jadidchilikning asosiy g‘oyalari va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik qoloqligi va diniy xurofotdan xalos etish, shariatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish hamda milliy armiya tuzishdan iborat edi. Bu fikr va g‘oyalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan: xalqimizning ilg‘or fikrli ma’rifatparvar vakillari jadal rivojlanayotgan G‘arb va Sharq mamlakatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish uchun sayohatlarga chiqa boshladilar. Turkistondagi bunday yuksalish va harakatga qanday omillar ta’sir qilgani haqida mushohada yuritadigan bo‘lsak, ma’rifatparvarlarning sayohatlari va ziyorat turizmi muhim ahamiyat kasb etganini kuzatishimiz mumkin. Bu sayohatlarning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- birinchidan, ziyoratni ado etish;
- ikkinchidan, Sharq va G‘arb mamlakatlaridagi taraqqiyotni ko‘rish va qiyosiy xulosalar chiqarish;
- uchinchidan, ta’lim tizimidagi yangiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, o‘rganish va ilg‘or jihatlarni Turkiston maorifiga joriy etish;
- to‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi yangi texnika va texnologiyalarni olib kelish;
- beshinchidan, demokratik o‘zgarishlar, inson erkinligi va huquqlari, matbuot va davlatchilikni rivojlantirish borasidagi tajribalarni o‘rganish va tahlil etish.

ISSN 3060-5059 (Online)

Ushbu sayohatlar Turkiston aholisini mudroqlikdan uyg‘otish, milliy mustaqil davlatchilikni barpo etish, yosh avlodni yangicha o‘qitish kabi bir qator vazifalarni o‘zida mujassam etgan edi. Ma’rifatparvar ajdodlarimiz Turkistonda yangi milliy uyg‘onish davrini boshlab berdilar. Ular o‘z xalqini ozod ko‘rishga va uni jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga bel bog‘lagan edilar. Quyida jadid allomalarimizning dunyoning ko‘plab mamlakatlariga uyushtirgan ma’rifiy-ziyorat safarlari hamda ulardan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni bir necha misol orqali ko‘rib chiqamiz.

Jumladan, faoliyati tufayli “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” nomini olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifiy-demokratik mazmundagi sayohatlarni amalga oshirib, ilg‘or g‘oyalarni o‘rganish, ular haqida mushohada yuritish hamda foydali jihatlaridan istifoda etishga zamin yaratgan. Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqqan. “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi”, — deb yozadi Behbudiy bu safar haqida. Dunyoni ko‘rish va kezish imkonini bergan bu sayohat izsiz ketmadi: u Behbudiyning dunyoqarashini va keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib, hayot yo‘lidagi ko‘plab yangiliklarni boshlab berdi. Sayohat Behbudiyning Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol va “jaholat uyi”ga aylangan maktab-madrasalar haqidagi qarashlarini tamomila o‘zgartirib yubordi. Adib Xolidning ta’kidlashicha [2], Mahmudxo‘ja Behbudiy 1899–1900-yillarda sakkiz oy davomida Kavkaz va Usmonlilar imperiyasi bo‘ylab sayohat qilib, haj ziyoratini ado etgan. U zamonaviy ta’lim muassasalari bilan tanishgan; o‘sha davrda ularning eng yaxshi namunalarini Usmonlilar imperiyasi va Misrda uchratish mumkin edi. Samarqandga qaytgach, u islohotlarning ashaddiy tarafdoriga aylangan.

Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmonlilar davlati hamda Misrda xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy islohotlarga yetakchilik qilgan shaxslar bilan muloqot qilish imkoniga ham ega bo‘lgan. Safar davomida unda yangi usul maktabi (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib borgan. Sakkiz oydan so‘ng Samarqandga qaytgach, u “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyga bunchalik ta’sir qilgan omil, albatta, sayohat orqali dunyoni bilishi va ko‘rganlari ustida mushohada yuritishi bo‘ldi. U jadidchilik harakatining tamal toshi bo‘lgan maktab islohotiga qat’iyat bilan kirishdi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy) va Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi usul maktablari tashkil etildi. Sayohatlar davomida tanishgan ta’lim islohotlarini chuqur o‘rganish natijasida Behbudiy Turkiston, jumladan, Samarqand maktablari uchun darsliklar yaratib, ularni tarqatdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lib, maorif sohasida rus va tatar arboblarining tajribasini o‘rgangan. U Ismoil Gasprinskiy bilan ilk bor 1897-yilda Gasprinskiyning Turkistonga sayohati chog‘ida Samarqandda tanishgan edi. Bu uchrashuv uning keyingi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

1906-yilda Behbudiy navbatdagi safarga otlandi: o‘sha yilning 23-avgustida Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining turmushi va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqirildi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig‘i sifatida qatnashib, Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli haqida katta nutq so‘zladi. Qariyb bir oy davom etgan bu safar haqida Behbudiy keyinchalik shunday yozgan edi: “Musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun Orenburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijniy Novgo‘rud borib edim”. Safarlari davomida Turkiya, Tatariston, Eron kabi hududlarda matbuot sohasidagi yangiliklarni ko‘rgan va matbuotning xalq fikri hamda dunyoqarashini o‘zgartirishdagi muhim o‘rnini chuqur anglagan Behbudiy mustaqil matbuot organini tashkil etish maqsadida 1913-yilda hukumatdan ruxsat olib, “Samarqand” gazetasini nashr eta boshladi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida haftada ikki marta chop etilgan. Afsuski, “Samarqand”ning 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. 1913-yil 20-avgustdan boshlab Behbudiy “Oyina” jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o‘zbek tilida bo‘lib, unda she’rlar, turli yo‘nalish va mavzudagi maqolalar va tahliliy materiallardan tashqari e’lonlar ham berib borilgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalgan. “Oyina” sahifalarida millat va uning haq-huquqlari, tarixi, til va adabiyot masalalari, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqola va bahslar e’lon qilib borilgan. Behbudiy millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilishni shart deb hisoblagan. Jurnalning birinchi sonidayoq u “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasi bilan chiqib, turkiy, forsiy, arab va rus tillarini, imkon qadar fransuz tilini ham bilish zarurligini ta’kidlagan.

1914-yilda Behbudiy yana bir yirik sayohatga otlandi. Bu safarning bir necha maqsadi bor edi. Birinchidan, uning noshirlik va gazetachilik ishlaridan biroz chalg‘ish va, eng asosiysi, dunyo ishlari, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni yaqindan kuzatish istagi kuchli edi. Ikkinchidan, “Behbudiya kutubxonasi” uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlarning tarixi, geografiyasi, aholisi, olimlari haqidagi kitoblar va boshqa foydali ma’lumotlar kerak edi. Behbudiy sayohat yo‘nalishini quyidagicha belgilagan: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr (Qohira), so‘ngra yana Istanbulga qaytib, temir yo‘l orqali Bolgariya, Avstriya va Berlin orqali Rossiyaga, undan Turkistonga qaytish. Sayohat 1914-yil 29-mayda boshlandi. Behbudiy poyezdda Bayramali orqali Ashxobodga o‘tadi, Krasnovodskdan paroxodda Bokuga boradi. 2-iyunda Mineralniye Vodiga yetib kelib, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov va Odessani kezadi hamda 8-iyunda Istanbulga kirib keladi. U yerdan Edirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21-iyunda dengiz yo‘li bilan Quddusga yo‘l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyul oyining boshlarida ham davom etadi. Behbudiy qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan yetishib chiqqan buyuk zotlar haqida ma’lumotlar to‘playdi, turli millatlar, ularning urf-odatlari va turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib shaharlardagi eskalatorgacha — hech narsa uning e’tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din va e’tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasulullo (s.a.v.) poyqadami yetgan qutlug‘ dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur al-Masjid al-Aqso ziyoratidan beqiyos zavq-shavqqa to‘ladi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Zaynobiddin Abdirashidovning “Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy” risolasida yozilishicha, nemis olimasi Ingeborg Baldauf mazkur xotiralarning nemischa tarjimasi munosabati bilan “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda” nomli maqola e’lon qilgan. Baldauf maqolasida Behbudiy kuzatishlarining o‘ziga xosligi haqida yozib, adib qalbini o‘rtagan eng katta dard erk va ma’rifat ekanini ta’kidlagan [3]. Ismoilbek Gasprinskiy va Behbudiyning ikkinchi uchrashuvi 1914-yil yozida yuz bergan. Alloma marg‘ilonlik bir kishi bilan Istanbuldagi Gülhane bog‘ida sayr qilib yurganida tasodifan Ismoil Gasprinskiyni ko‘rib qolgan va “o‘xshatgan bo‘lsam kerak” degan o‘y bilan salom berib o‘tib ketgan. Orqasidan alik ovozi kelgach, ikki do‘st ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashgan. Gasprinskiyning taklifi bilan Shahin posho mehmonxonasida bo‘lib o‘tgan suhbat yetti soat davom etgan. Suhbatda Turkistonning ahvoli, maktab, gazetachilik, dunyo musulmonlarining hayoti va taraqqiyoti haqida fikr almashilib, istiqbol rejalari muhokama qilingan. Suhbat yakunida Gasprinskiy Behbudiyni Qrimga taklif etgan [4]. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, jadid yetakchilarining shu davrda ilg‘or shahar va mamlakatlarga uyushtirgan sayohat va ziyorat safarlari ta’lim tizimi, matbuot, davlat va jamiyat boshqaruvi, turkiy xalqlarning o‘zaro qardoshlik munosabatlari hamda ular uchun umumiy maqsadlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston jadidlarining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zi amalga oshirgan ma’rifiy va ziyorat safarlari tufayli Vatani taraqqiyot jihatidan jahonning rivojlangan mamlakatlaridan ortda qolganini anglab yetdi. U Ismoil Gasprinskiyning hamfikr shogirdi sifatida fikr doirasini kengaytirib, sayohatlari natijasida shakllangan maktab, teatr, matbuot, jamiyat hayoti va boshqaruvi masalalariga oid islohotlar rejasini amalga oshirishga kirishgan edi. Yoshlarimiz shuni anglab yetishlari lozimki, Yangi O‘zbekistonning dunyo tamaddunida mustahkam o‘rin egallashi va taraqqiy etgan davlatlar qatoridan joy olishi uchun XIX asr oxiri — XX asr boshlarida bo‘lgani kabi turizm orqali jahon sivilizatsiyasi darajasidan xabardor bo‘lish, ilg‘or yangiliklarni o‘rganish va egallash, barcha sohalarda yetuk mutaxassis bo‘lish hamda Vatanni yuksaltirish har birimizning muqaddas maqsadimiz va burchimiz bo‘lmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xoldarov T., Tulenova X. Turizm (sayyohlik). – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2016. – B. 3.
2. Халид А. Центральная Азия от века империй до наших дней. – Москва, 2024. – С. 123–124.
3. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 15–22.
4. Jo‘rayev H. A. Abdurauf Fitrat va jadid madaniyati // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha): xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 10-iyun). – 2023. – B. 670–673.